

## DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA QO'LLANILADIGAN INTERAKTIV USULLAR

Xayitgul Muzaffarova Nesibovna  
Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Maxsus pedagogika kafedrası dotsenti  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20699606>

### Annotasiya

Maqolada dars samaradorligini oshirishda qo'llaniladigan interaktiv usullar, pedagogik xodimlarining yangi, ilg'or pedagogik texnologiyalar, jumladan o'qitishning zamonaviy interaktiv usullarini bilishi, amaliyotda qo'llay olishi haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar.** Dars, samaradorlik, interaktiv, ta'lim, aktivator, maxsus ta'lim.

Uzluksiz ta'lim tizimi oldidagi mazkur vazifalarni amalga oshirish ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligiga, samaradorlik esa o'z navbatida ta'lim oluvchilar va beruvchilarning faoliyatini tashkil etilishi va faollashtirilishiga bog'liqdir.

Ma'lumki, amaliyotga yangi o'quv reja, davlat ta'lim standartlari va dasturlar, darsliklarning yangi avlodlari taqdim etildi. Shularning davomi sifatida, bugun ta'lim sohasi mas'ullari oldida turgan dolzarb masalalardan biri pedagogik texnologiyalar asosida, innovasion yondashuvlar orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishdan iborat.

Maxsus ta'lim muassasalari pedagogik xodimlarining yangi, ilg'or pedagogik texnologiyalar, jumladan o'qitishning zamonaviy interaktiv usullarini bilishi, buning uchun tegishli ma'lumotlarni o'rganishi, taxlil qilishi va umumlashirishi, amaliyotda qo'llay olishi bugungi kunning ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi talabidir.

Maqsad:

- O'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi.
- O'z vaqtida o'quvchi – o'qituvchi – o'quvchilar rtasida ta'limiy aloqalar o'rnatadi.
- O'qitish usullari ta'lim jarayonida turli xil ko'rinishlarda kechadi (yakka, juft, katta guruhlar)
- O'quv jarayoni o'quv e'htiyojini qondirish bilan yuqori motivatsiyaga ega bo'ladi.
- O'zaro axborot berish, olish, qayta ishlash orqali o'quv materialini yaxshi esda qoladi.
- O'quvchida o'zaro muloqatga kirishish, fikr bildirish, fikr almashinish ko'nikmalari shakllanadi.
- O'quv jarayonida – o'quvchining o'z-o'ziga baxo berishi, tanqidiy qarashi rivojlanadi.
- O'quvchi uchun dars qiziqarli o'qitilayotgan predmet mazmuniga aylanadi, o'qish jarayoniga ijodiy yondashuv, ijobiy fikr namoyon bo'ladi.
- Har bir o'quvchini o'zi mustaqil fikr yurita olishga, izlanishga, mushoxada qilishga olib keladi.
- Interaktiv usulda o'tilgan darslarda o'quvchi faqat ta'lim mazmunini o'zlashtiribgina qolmay, balki o'zining ham tanqidiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. Quyidagi darslarda qollaniladigan usullardan namuna keltirib o'tamiz.

### HAMMA –HAMMAGA O'RGATADI (interaktiv usul)

**Maqsad:** Bu usulni o'quvchilarga biror bir darsda o'gatilgan qoidalarni, moddalarni, mavzuga oid qonuniyatlarni o'rgatishda foydalanilsa bo'ladi. Xar - bir ishtirokchiga moddalar yozilgan qog'ozlar tarqatiladi va o'yin qoidasi tushuntiriladi. Hurmatli ishtirokchilar hozir siz qo'lingizdagi qog'ozdagi yozuvni o'qib chiqasiz, men signal bergandan keyin o'qigan narsangizni 10 sekund

ichida yana 10 ta odamga aytib berishingiz kerak bo'ladi. Vaqt bo'ldi deyilganda hamma joy- joyini egallashi lozim. Muhokama yakka tartibda yoki jamoa bilan olib boriladi .

Masalan: qani kimni esida nechta modda qoldi - o'quvchi javob beradi va o'sha esda qolgan modda kim tomonidan aytib berilgani, bu nechanchi moddaligi unig mazmun mohiyati qisqacha muhokama qilinadi va shu tarzda o'yin davom ettirilib boshlovchi yakuni bilan tugallanadi.

### **REFLEKSIYA. Aktivator 3 -2 -1**

**Maqsad:** (darsni takrorlashga, qayta esga tushirishga yordam beruvchi o'yin). Bu usul orqali o'tilgan darsni mustaxkamlab olish, o'quvchilar bilimini qisqacha tekshirib olish mumkin. O'qituvchi, hozir men 15 gacha sanayman, siz shu vaqt mobaynida:

3 ta o'zihgiz uchun qiziqarli ma'lumot;

2 ta sizga yoqqan malumot;

1ta amalda qo'llash mumkin bo'lgan ma'lumotni yozishingiz kerak bo'ladi. Shu tarzda ishni boshlash haqida m'alum signal beriladi.

### **CHARXPALAK (interaktiv usul)**

**Maqsad:** Bu usulda guruhlardagi bolalar soniga qarab 5-6 tadan guruhchalar bo'linib oladi(guruhlarda bolalar 5-6 ta bo'lsa yaxshi samara beradi). Bu usul orqali bolalar jamoa bo'lib ishlashni, tez fikrlash, bir-birini qo'llab quvvatlashni o'rganadi.

**O'yin qoidasi:** 5 ta vatman qog'ozga besh xil savol berilgan (iloji bo'lsa savollar bir-birini to'ldiruvchi bo'lsa yanada yaxshi), hozir siz o'z guruhingiz bilan men chapak chalguncha javoblar yozasiz, chapak chalingandan so'hg guruhlar soat strelkasi yo'nalishida qog'ozlarni almashtiradi va yana savollarga javob yoziladi, toki qo'lingizga o'z qog'ozingiz yetib kelmaguncha. O'yin so'ngida javoblar ko'rib chiqiladi va guruh tomonidan to'g'ri deb qabul qilinsa belgi qo'yib chiqiladi.

### **QASRDAGI PREZIDENTLAR(o'yin)**

**Maqsad:** Bolalarni aniq xarakterga o'rgatish, quvvatni oshirish, diqqatini bir joyga to'plashga o'rgatish.

O'yin qoidasi: guruhdagi bolalar 1, 2, 3 sanash orqali bo'linishib oladi. Ulardan ikkitasi qasr bittasi prezident qilib ajratiladi, ikki odam qo'llarini ushlab turadi, ular o'rtasida prezidentlari turadi.

Agar prezidentlar deganda, ular boshqa qasrga almashinib oladilar, qasrlar joy- joyida turadi. Qasrlar deyilganda, qasrlar birgalikla boshqa prezidentlani egallashi lozim, bunda prezidentlar joy- joyida qoladi.

Zilzila deyilganda qasrlar ham prezidentlar ham buziladi va hamma erkin aylanib yurishadi. Yana qasrlar yoki prezidentlar signali bo'lganda oldingi komandalar o'zgarib boshqalar ular vazifasini bajarishi mumkin.

## **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Ишмухаммедов Р. “Тарбияда инновацион технологиялар”. – Т.: “Фан ва технологиялар” нашриёти, 2010 йил.
2. Djurayeva, S., & Omonboyeva, K. (2020). MAXSUS TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGI. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(56).  
извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/4512](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4512)
- Muzaffarova, X. (2020). Ўқитиш жараёнида педагогик технологиялардан фойдаланиш масалалари: *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(39).извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6017](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6017)